

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

SHAHNISABZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

“TASDIQLAYMAN”

**Shahnisabz davlat pedagogika
instituti v.b. rektori:**



J.Sh.Shonazarov

“ 05 ” 07 2023 il

**KASBIY (IJODIY) IMTIHON DASTURI VA
BAHOLASH MEZONI**

(Kunduzgi va sirtqi bo'lim uchun)

**TASVIRIY SAN'AT (rang tasvir) va
CHIZMACHILIK
Fanlari**

**60111200 – (“Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi”)
bakalavriat ta'lim yo'nalishi uchun**

SHAHNISABZ -2023

Mazkur dastur 2023-yildagi 24-iyun 11-sonli majlis bayoni bilan Shahrisabz davlat pedagogika instituti o'quv-uslubiy kengashida ko'rib chiqilgan va ma'qullangan.

Tuzuvchilar:

Xaydarova.M.E - Shahrisabz davlat pedagogika instituti
“San’atshunoslik” kafedra o'qituvchisi.

Mirzayev.E.M - Shahrisabz davlat pedagogika instituti
“San’atshunoslik” kafedra o'qituvchisi.

Taqrizchilar:

To'raqulov.A.E - Termiz davlat universiteti “Milliy libos va san’at” fakulteti
dekani Pedagogika fanlari nomzodi.

Abdirasilov.S.F - Nizomiy nomli TDPU.”Tasviriy san’at” kafedrasida
professor vazifasini bajaruvchi Pedagogika fanlari
nomzodi.

I.Kirish

Ushbu dastur O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublika oliy ta'lim muassasalari bakalavriatiga kirish test sinovlarini o'tkazish tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi 2017-yil 16-noyabrdagi PQ-3389-son qarori va Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 3-apreldagi "Oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish tartibini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 261-son qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan.

"60111200 — Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha kasbiy (ijodiy) imtihon dasturi kasb-hunar maktablari hamda umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi tasviriy san'at va chizmachilik fanlari dasturi asosida tuzilgan bo'lib, abituriyentlarning amaliy ko'nikma va malakalarini aniqlash uchun mo'ljallangan. 60111200 — "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" bakalavriat ta'lim yo'nalishiga hujjat topshirgan abituriyentlar kasbiy (ijodiy) imtihonda tasviriy san'at va muhandislik grafikasining asosi bo'lgan rangtasvir va chizmachilik fanlaridan amaliy ish bajarib, o'zlarining bilimlarini namoyon etadilar. Bajariladigan amaliy ishlar tasdiqlangan mezon asosida baholanadi.

II.Fanning maqsadi va vazifalari

60111200 — Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha o'qituvchilar tayyorlash bo'yicha kasbiy (ijodiy) imtihonlar abituriyentlarning tasviriy san'at va chizmachilik sohasida nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay olishi bo'yicha amaliy ko'nikma va malakalarini aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

Abituriyentlar ixtisoslikning quyidagi asosiy fanlaridan amaliy-ijodiy, grafik ishlar bajaradilar:

Tasviriy san'at (rangtasvir). Natyurmort qo'yilmasidagi buyumlarning o'zaro nisbati, tiavo perspektivasi va rang qonuniyatlari, kompozitsiya tuzilishi, yorug'-soya, tus tushunchalari negizida uy-ro'zg'or buyumlari, meva, sabzavotlar, gipsli geometrik jismlar, sidirg'a va rangli mato fonida o'ziga qarab qog'oz formatida natyurmort tasvirini akvarel bo'yog'idan foydalanib, amaliy ish bajarish malakalarini aniqlashdir.

Chizmachilik. Tarkibida tutashma elementlari mavjud bo'lgan detal chizmasini chizish, buyumning berilgan ikki proyeksiyasiga asosan yetishmovchi proyeksiyasini topish, kerakli qirqimlari bilan aksonometriyasini qog'oz formatida qalanida amaliy bajarish malakalarini aniqlashdir.

I. Abituriyent bilimiga qo'yiladigan talablar

Абитуриентдан рангтасвир фанидан натюрмортни қоғозга тўғри жойлаштириши, уфқ чизиғини тўғри топиши, предметларнинг ҳажми, ўзаро нисбатини тўғри топиши, перспектива қонунига риоя қилиши, соя-ёруғ, рефлексни тўғри топиши, акварель бўёғи техникасидан тўғри фойдаланиши, натурадаги буюм ҳажмларини тўғри акс эттириши, буюмлардаги соя ва ёруғларни тўғри аниқлаши, буюмларнинг фактурасини (гипс, сопол, металл, мато, ва ҳоказолар) топиши, қуйилган вазифа тўлиқ бажариши талаб этилади.

Abituriyentdan chizmachilik fanidan tutashma markazini, tutashma nuqtalarini to'g'ri topishi, tutashmani silliq rayon tutashtirishi, berilgan ikki proyeksiyani to'g'ri ko'chirishi, masshtabni to'g'ri tanlashi, yetishmovchi proyeksiyani to'g'ri topishi, qirqimlarni to'g'ri bajarishi, aksonometrik proyeksiyani qirqimlari bilan to'g'ri bajara olishi, o'lchamlar qo'yishda qoidaga rioya qilishi, chizmalarni qog'ozga to'g'ri joylashtira bilishi va ishni sifatli bajarishi talab etiladi.

Abituriyent jadval bo'yicha belgilangan kunda har bir fanga 3 astronomik soat (180 daqiqa) vaqt davomida grafik ish bajaradi. Tasviriy san'at (rangtasvir) hamda chizmachilik fanlari bo'yicha bajariladigan ish qog'ozining o'lchami A3 formatda bo'ladi.

Bu ishlarni baholash quyidagi tartibda amalga oshiriladi: Tasviriy san'at (rangtasvir) fanidan bajarilgan ishga 10 tadan savol, chizmachilikdan 13 ta savol qo'yiladi va bu savollarga sinov o'tkazuvi komissiya a'zolari bajarilgan ishning hajmi va sifatiga qarab ball qo'yadilar. Har bir fan bo'yicha ballar qaydnomaga yoziladi va umumlashtiriladi.

Mazkur yo'nalishda kasbiy (ijodiy) imtihonlar uchun qo'yiladigan maksimal ball — 156 ni tashkil etadi:

Rangtasvir - 78,0 ball

Chizmachilik - 78,0 ball

RANGTASVIR

№	Savollar mazmuni	To'liq javob uchun ball
1	Natyurmort qog'ozga to'g'ri joylashtirilgan	0-7 gacha
2	Ufq chizig'i to'g'ri topilgan	0-7 gacha
3	Predmetlarning hajmi, o'zaro nisbati to'g'ri topilgan	0-8 gacha
4	Navo perspektiva qonuniga rioya qilingan	0-8 gacha
5	Soya, yorug', refleks to'g'ri topilgan	0-8 gacha
6	Akvarel boyog'i texnikasidan to'g'ri foydalanilgan	0-8 gacha
7	Naturadagi buyum hajmlari to'g'ri aks ettirilgan	0-8 gacha
8	Buyumlardag soya va yorug' lar to'g'ri aniqlangan	0-8 gacha
9	Buyumlarning fakturasi (gips, sopol, metall, mato, va hokazolar) topilgan	0-8 gacha
10	Qo'yilgan vazifa to'liq bajarilgan	0-8 gacha

Rangtasvir bo'yicha abituriyentlarning to'plashi mumkin bo'lgan maksimal ballarning umumiy miqdori — **78,0 ball**

CHIZMACHILIK

№	Savollar mazmuni	To'g'ri javob uchun ball
1	Tutashma markazi to'g'ri topilgan	0-6 gacha
2	Tutashma nuqtalari to'g'ri topilgan	0-6 gacha
3	Tutashma silliq ravon tutashtirilgan	0-6 gacha
4	Tutashma bajarishdagi geometrik yasashlarning to'g'ri tatbiq qilinganligi va u chizmada saqlanganligi	0-6 gacha
5	Berilgan ikki proyeksiya to'g'ri ko'chirilgan, masshtab to'g'ri tanlangan	0-6 gacha
6	Yetishmovchi proyeksiya to'g'ri topilgan	0 6 acha
7	Qirqimlar to'g'ri bajarilgan	0-6 gacha
8	Aksonometrik proyeksiya to'g'ri boshlangan	0-6 gacha
9	Aksonometrik proyeksiya tugallangan	0-6 gacha
10	Aksonometriyada qirqim to'g'ri bajarilgan	0-6 gacha
11	Chizmalarda chiziq turlariga rioya qilingan	0-6 gacha
12	O'lchamlar qo'yishda qoidaga rioya qilingan	0-6 gacha
13	Chizmalar chizma qog'oziga to'g'ri joylashtirilgan va sifatli bajarilgan	0-6 gacha

Chizmachilik bo'yicha abituriyentlarning to'plashi mumkin bo'lgan
maksimal ball - **78,0 ball**

V. Kasbiy (ijodiy) imtihonlarni o'tkazish tartibi

60111200 — Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi bakalavriat ta'lim yo'nalishiga hujjat topshirgan abituriyent jadval asosida belgilangan kunda, har bir fandan 3 astronomik soat vaqt davomida chizmachilik fanidan grafik ish hamda rangtasvir fanidan natyurmort qo'yilmasini bajaradilar. Qabul komissiyasi tomonidan shakllantirilgan guruhlar 20-30 nafar abituriyentlardan iborat bo'lib, kasbiy (ijodiy) imtihon guruhlar bo'yicha o'tkaziladi. Kasbiy (ijodiy) imtihon rangtasvir fanidan molbert va planshetlar bilan jihozlangan xonalarida hamda chizmachilik fanidan stol-stul bilan jihozlangan xonalarida o'tkaziladi.

Tasviriy san'at (rangtasvir). Tasviriy san'at nazariyasi asosida natyurmortning o'zaro nisbati, havo perspektivasi qonuniyatlari, kompozitsiya tuzilishi, yorug' va soya tushunchalari negizida gipsli geometrik jism, uy-ro'zg'or buyumlari, meva va sabzavotlar rangli mato fonida o'ziga qarab tasviri rangda bajariladi.

Chizmachilik. Chizmachilik fanidagi vazifalar O'zDStga rioya qilgan holda bajariladi. Tarkibida tutashma elementlari mavjud bo'lgan detal chizmasini chizish, buyumlarning berilgan ikki proyeksiyasiga asosan yetishmovchi proyeksiyasini topish, kerakli qirqimlari bilan aksonometriyasini qog'oz formatida qalamda amaliy bajarish malakalarini aniqlashdir.

Bajarilgan ishlarni baholash quyidagi tartibda amalga oshiriladi: rangtasvir fani bo'yicha ish to'liq va to'g'ri bajarilgan bo'lsa, baholash mezoniga mos ravishda 0 (nol) balldan 7 (8) ballgacha, chizmachilik fanidan ish to'liq va to'g'ri bajarilgan bo'lsa, baholash mezoniga mos ravishda 0 (nol) balldan 6 (olti) ballgacha belgilanadi.

Fan bo'yicha sinov o'tkazuvchi komissiya a'zolaridan tashkil etadi va ular shu ta'lim yo'nalishiga kadrlar tayyorlovchi kafedralar professor-o'qituvchilari tarkibidan jalb etiladi.

VI. Apellyatsiya tartibi

Абитуриентлар томонидан касбий (ижодий) имтиҳон натижалари бўйича Институт қабул комиссиясининг апелляциялар билан ишлаш ҳайъатига натижалар эълон қилинган кундан бошлаб 24 соат давомида мурожаат қилишлари мумкин.

Мурожаат мазмунида фақат ўзининг баллари ҳақида бўлса, қабул қилинади, лекин, бошқа абитуриентлар ҳақида ёзилган шикоят аризалари қабул қилинмайди.